

TADBIRKORLARGA KO'MAKLASHISH ORQALI HUQUQBUZARLIKNING OLDINI OLISH - SOLIQ NAZORATINING ZAMONAVIY MEXANIZMI SIFATIDA

Idirisov Alisher Otajonovich,
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo
soliq inspeksiyasi katta inspektori

Kalit so'zlar: Soliq kodeksi, soliq ma'muriyatchiligi, soliq nazorati, soliq tekshiruvlari, soliq monitoringi, tekshiruvdan oldingi tahlil.

Ключевые слова: Налоговый кодекс, налогового администрирования, налоговый контроль, налоговых проверок, налогового мониторинга, предпроверочный анализ.

Key words: Tax code, tax administration, tax control, tax inspections, tax monitoring, a pre-verification analysis.

Yurtimizda tadbirkorlikni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishni ta'minlaydigan soliq tizimi shakllantirilgan. Shu bilan birga, aytishimiz joizki, soliq sohasini tanqidiy o'rganishlar natijalari soliq organlari faoliyatini, jumladan, ularning soliq to'lovchilar va davlat organlari bilan o'zaro hamkorlik qilish, soliq nazoratining zamonaviy shakl va usullarini joriy etish bo'yicha faoliyatini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi.

So'ngi vaqtlarda soliq nazoratining eskirgan uslub va prinsiplariga asoslangan soliq organlarining amaldagi faoliyati mazkur organlar oldiga qo'yilgan yangi vazifalarni hal qilish, jumladan, soliq solinadigan bazani kengaytirish va soliqlar yig'iluvchanligining oshirilishini ta'minlash imkonini bermay qo'ydi. Soliq sohasida o'z yechimini topmagan ayrim muammolarning mavjudligi esa soliq tizimining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Shu sababli mamlakatimizda soliq ma'muriyatchiligi tizimini takomillashtirishning eng muhim yo'nalishlari belgilab berildi¹.

Nazorat qiluvchi organlar va insofli tadbirkorlik subyektlari o'rtasida ishonchli hamkorlikni o'rnatishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3802-son Qarori, 2018-yil 26-iyun (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi - Lex.uz).

takomillashtirish konsepsiyasining qabul qilinganligi amaldagi tekshiruvlar tizimini, davlat nazoratining boshqa turlarini tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab etdi².

Soliq ma‘muriyatchiligining zamonaviy uslublarini joriy etish maqsadida yurtimiz soliq organlari tizimini isloh etishning muhim yo‘nalishlari belgilangan. Bular qatorida soliq ma‘muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg‘or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish, tadbirkorlik subyektlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotsiz elektron xizmat ko‘rsatishga o‘tish hamda soliq majburiyatlarini bajarishda har tomonlama ko‘maklashish, soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasining ta‘sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va soliq to‘lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning yangi uslublarini joriy etish kabilarni alohida ta‘kidlashimiz joizdir. Shunga ko‘ra, 2018-yil 1-yanvardan soliq organlari va halol soliq to‘lovchilar o‘rtasida ularga joriy soliq solish masalalarini hal qilishda har tomonlama ko‘maklashgan holda kengaytirilgan axborot almashinuvini nazarda tutuvchi soliq nazoratining zamonaviy shakli - soliq monitoringi joriy etilishi ko‘zda tutilgan³.

“Soliq ma‘muriyatchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni bilan 2007-yil 25-dekabrda qabul qilingan Soliq kodeksi “Soliq monitoringi” bo‘yicha 5 ta moddadan iborat alohida bob kiritilgan holda tegishli o‘zgarish va qo‘shimchalar bilan to‘ldirildi⁴.

2019-yil 30-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-599-sonli Qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonun bilan Soliq kodeksining yangi tahriri tasdiqlandi. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi bilan soliq ma‘muriyatchiligi va soliq nazoratining mutlaqo yangi tizimi amaliyotga joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-noyabrdagi “Soliq ma‘muriyatchiligini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan “Soliq monitoringini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizom tasdiqlandi. Shuningdek, soliq monitoringi jarayoniga oid Davlat soliq qo‘mitasining tegishli hujjati Adliya vazirligidan ro‘yhatdan o‘tkazildi⁵.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5490-son Farmoni (Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi - Lex.uz).

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Soliq ma‘muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5116-son Farmoni, 2017-yil 18-iyul (Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi - Lex.uz).

⁴ O‘zbekiston Respublikasining “Soliq ma‘muriyatchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-455-son Qonuni, 2017-yil 30-dekabr (Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi - Lex.uz).

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining “Axborotga doir hamkorlik reglamentining shakli va unga doir talablarni tasdiqlash haqida”gi Adliya vazirligidan 2021-yil 31-may kuni 3307-son bilan ro‘yhatdan o‘tkazilgan qarori, (Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi - Lex.uz).

Ma'lumki, soliq monitoringi jarayonida yuridik shaxs tomonidan soliqqa oid qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar va yig'imgar to'g'ri hisoblab chiqarilganligi, to'liq hamda o'z vaqtida to'langanligi (o'tkazilganligi) tekshiriladi, o'z navbatida bular soliq monitoringining predmeti hisoblanadi. Demak, bu tadbirkor va soliq organlari o'rtasidagi ochiqlikka asoslangan o'zaro manfaatli hamkorlik evaziga soliq tekshiruvlari o'tkazilishidan xalos bo'lish deganidir.

Soliq monitoringi davomida tadbirkor o'z tashabbusi bilan soliqlar va yig'imgar to'g'ri va o'z vaqtida hisoblanganligini tekshirish uchun soliq idorasiga murojaat etadi. Bu soliq to'lovchining tashabbusi bilan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan soliq nazoratining yagona shaklidir.

Soliq monitoringini amalga oshirgan korxonalarining afzalliklari:

- soliq organlari bilan onlayn rejimda muammolarni tartibga solish imkoniyati mavjudligi sababli qonunbuzilishlarning oldi olinadi;
- soliqqa tortishning murakkab masalalari bo'yicha noaniqliklar va nomuvofiqliklarni bartaraf etish imkoniyati yuzaga keladi;
- jarima va penyalar qo'llanilishidan saqlanadi;
- soliq tekshiruvlari o'tkazilishidan xalos bo'lish imkoniyati paydo bo'ladi;
- soliq to'lovchi uchun esa qonunga bo'ysunishini va qonunlarga itoatkorligini isbotlash uchun imkoniyat paydo qiladi;
- Qo'shilgan qiymat solig'i o'rni qoplashning tezlashtirilgan tartibi qo'llanilish imkonini yuzaga keltiradi.

Shunday qilib, agar tadbirkor soliqlar va yig'imgar to'g'ri hisoblanishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi, soliq imtiyozlari va preferensiyalarining real vaqt rejimida qo'llanilishiga ishonch hosil qilishni istasa, soliq monitoringi ushbu muammolarning barchasini hal qilishga imkon beradi. Ya'ni soliq monitoringi natijasida tadbirkorlik subyekti soliq idorasi tavsiyalariga ko'ra, yo'l qo'yilgan xatolarni o'z vaqtida tuzatib oladi.

Yana shuni alohida ta'kidlashimiz mumkinki, mamlakatimizda o'tgan yillar davomida yaratilgan IT-infratuzilmasi hamda davlat soliq xizmati organlarining yagona ma'lumotlar bazasi soliq ma'muriyatchiligining yuqori texnologiyali modeliga o'tish imkonini bermoqda. Soxaga oid kiritilayotgan o'zgartirishlardan asosiy maqsad esa soliq nazoratini raqamlashtirish natijasida qarorlar qabul qilishda inson omilining ta'sirini kamaytirish va soliq organlarining soliq to'lovchilar faoliyatiga asossiz aralashuvi xavfini bartaraf etishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-741-sonli Qonuniga asosan Soliq kodeksining 138-moddasiga qo'shimchalar kiritildi. Unga muvofiq soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etilgan soliq

hisobotlaridagi nomuvofiqliklar va xatoliklarni inson aralashuvisiz avtomatik tarzda aniqlaydigan tekshiruvdan oldingi tahlil instituti joriy etildi.

Tekshiruvdan oldingi tahlil instituti joriy etilishining fundamental asosi xolislik va betaraflik tamoyillariga asoslangan bo‘lib, uning natijalari esa kameral soliq tekshiruvini tayinlash yoki tayinlamaslik uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Tekshiruvdan oldingi tahlil soliq nazoratining biror turi hisoblanmaydi va uning natijalari bo‘yicha javobgarliklar qo‘llanilmaydi. Xizmat ko‘rsatish xususiyatiga ega bo‘lgan ushbu institutning asosiy maqsadi soliq to‘lovchiga soliq hisobotlaridagi mavjud nomuvofiqliklar yoki xatoliklarni tuzatish imkoniyatini berishdan iborat bo‘lib unda soliq xodimlari ishtirok etmaydi, aksincha butun jarayon soliq organlarining axborot tizimlaridan foydalangan holda to‘liq avtomatik tarzda amalga oshiriladi.

Tekshiruvdan oldingi tahlil soliq to‘lovchilar tomonidan taqdim etilgan hisobotlardagi tafovutlarni kelib chiqish sabablarini ularga tushuntirgan holda, o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan tekshiruvlarni oldini olishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Tekshiruvdan oldingi tahlil “Avtokameral” avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali amalga oshiriladi. “Avtokameral” avtomatlashtirilgan axborot tizimida joriy qilingan mezonlar mantiqiy shartlar va algoritmlar asosida, tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etilgan soliq va moliyaviy hisobotlarda keltirilgan ko‘rsatkichlar bilan soliq organlarida mavjud ma’lumotlarni (jumladan, elektron hisobvaraqa-faktura, eksport-import operatsiyalari, onlayn kassa texnikasi cheklari va boshqalar) avtomatlashtirilgan tartibda taqqoslaydi.

Agarda tekshiruvdan oldingi tahlil jarayonida soliq organi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotida soliq organida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar bilan tafovutlar va (yoki) xatolar mavjudligi aniqlansa, soliq to‘lovchining shaxsiy kabinetiga soliq hisobotiga tegishli tuzatishlar kiritish to‘g‘risidagi xabarnoma yuboriladi.

“Avtokameral” avtomatlashtirilgan axborot tizimining joriy qilinishi soliq to‘lovchilarga quyidagi bir qator afzalliklarni yaratadi:

- ✓ Soliqlarni o‘z vaqtida, to‘liq hajmda va to‘g‘ri hisoblanishi hamda to‘lanishini ta’minlashda yordam beradi;
- ✓ Yuzaga kelgan soliqqa oid huquqbuzarliklarni mustaqil ravishda bartaraf etish imkoniyatini beradi;
- ✓ Qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan moliyaviy jarimalar, ma’muriy yoki jinoiy javobgarlik choralarining oldini olga xizmat qiladi;
- ✓ Tadbirkorlik faoliyatiga asossiz aralashish va korrupsiya holatlarini cheklash hamda ma’muriy bosimlarni kamaytirishga imkoniyat yaratadi.

Ayni paytdagi tekshiruvdan oldingi tahlillarda hisobot topshirishda eng ko‘p xatoga yo‘l qo‘yilayotgan yo‘nalishlardan biri taqdim etilgan daromad solig‘i hisobotida mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar ko‘rsatkichlarini ortib boruvchi

yakun bilan taqdim etmaslik holatidir. Soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etilayotgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va ijtimoiy soliq hisob-kitoblari bo'yicha o'tkazilayotgan tekshiruvdan oldingi avtomatlashtirilgan tahlillarda tafovutlar ko'proq aniqlanmoqda. Bunga sabab esa hisobot davrida hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar summasini hisobotning 011-satrida yil boshidan o'zgartirmasdan taqdim etilishidir. Tadbirkorlar tomonidan bu kabi xatoliklarga yo'l qo'yimaslik uchun quyidagilarga amal qilish tavsiya etiladi:

✓ jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va ijtimoiy soliq hisob-kitobining 011-satrida mehnatga haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan daromadlar ortib boruvchi yakun bilan shakllantirish;

✓ ushbu hisobotning 0110-satrida esa hisobot davrida hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar aks ettirilishi zarurdir.

O'tgan 2022-yil davomida mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar ko'rsatkichlarini ortib boruvchi yakun bilan taqdim etmaslik holati bo'yicha tekshiruvdan oldingi tahlil jarayonida 68 751 ta korxonaning soliq hisobotlarida jami 302 412,8 mln so'mlik tafovutlar aniqlangan⁶.

Bizningcha, tadbirkorlarga soliq solish masalalarini hal qilishda har tomonlama ko'maklashgan holda, soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasida kengaytirilgan axborot almashinuvini yo'lga qo'yish orqali soliq to'lovchilarga yordam va maslahatlar berib ular faoliyatini rivojlantirishda soliq monitoringining o'rni beqiyosdir. O'z navbatida esa tekshiruvdan oldingi tahlil ham soliq to'lovchilar faoliyatida o'tkazilish ehtimoli bo'lgan tekshiruvlarning oldini olishda, shuningdek turli ko'rinishdagi jarimalar qo'llanilishidan himoya qilishda soliq to'lovchilarga ko'maklashishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini to'sqinliksiz amalga oshirilishini ta'minlash, biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga, shuningdek davlat soliq xizmati organlarini soliq to'lovchilarning biznes-hamkori va maslahatchisi sifatidagi yangi imidjini yaratish orqali xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan idoraga aylantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar izchillik bilan olib borilmoqda.

Mazkur chora-tadbirlar yurtimizda ishbilarmonlik muhitini rivojlantirishga va O'zbekiston Respublikasining xalqaro miqyosdagi reytingiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda xalqimizning farovonligiga xizmat qiladi.

⁶ Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.